

FUQAROLIK SUDLARIDA SIRTDAN ISH KO'RISH TARTIBI

Xashimov Ravshan Rayimjonovich

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

Mutaxassislik fanlari kafedrası

o'qituvchisi, 3-darajali yurist

Annotatsiya: *Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda sirtdan ish korish amaliyoti joriy qilingan bo'lib, bu amaliyot da'vogarni huqqulari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda taraflarning harakat (harakatsizligi) uchun javobgarlik darajasini oshirish, nizoli masalani hal etishni tezlashtirishni kafolatlaydi. Quyida fuqarolik ishlarini sirtdan ko'rish tartibi va taraflarning huquq majburiyatlariga ta'rif berilgan.*

Kalitso'zlar: *Sirtdan ish ko'rish, hal qiluv qarori, javobgar, ajrim, sud majlisi, sudya, ariza, davlat boji*

Аннотация: *При рассмотрении гражданских дел в суде внедрена практика заочного производства, которая гарантирует защиту прав и законных интересов истца и повышение уровня ответственности за действия (бездействие) сторон, ускорение разрешения спорного вопроса. Ниже приводится определение порядка рассмотрения гражданских дел заочно и правовые обязанности сторон.*

Ключевые понятия: *Заочное дело, решение, ответчик, определение, судебное заседание, судья, заявление, государственная пошлина*

Abstract: *When considering civil cases in court, the practice of absentee proceedings has been introduced, which guarantees the protection of the rights and legitimate interests of the plaintiff and an increase in the level of responsibility for actions (inaction) parties, acceleration of the resolution of the disputed issue. The following is a definition of the procedure for considering civil cases in absentia and the legal obligations of the parties.*

Key concepts: *Absentee proceedings, resolution, defendant, ruling, court session, judge, petition, state duty*

O'zbekiston mustaqilikka erishib, dunyo hamjamiyatlari o'rtasida o'zining munosib o'rnini egallashi tufayli qonun ijodkorligi masalasida ham taraqqiy etgan davlatlarning tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi hech kimga sir emas. Shu ma'noda fuqarolik ishlarini sirtdan ko'rib hal etish hozirgi qator xorijiy davlatlarda, shu jumladan, Rossiya Fedyerasiyasida ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Sirtidan hal qiluv qarorini chiqarish uchun ikkita shart vujudga kelgan bo'lishi talab qilinadi.

Birinchi, javobgar qonunda belgilangan tartibda sud majlisida ko'riladigan ish haqida xabardor qilingan bo'lishi va bu haqda ishda tegishli ma'lumot bo'lishi talab qilinadi. Bunday talab FPKda berilgan, bu qoidaga ko'ra sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda da'vogar e'tiroz bildirmasa, sud ish bo'yicha sirtidan hal qiluv qarorini chiqarishi mumkin. Ishni bunday tartibda ko'rish haqida sud ajrim chiqaradi. Javobgar tegishli tartibda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot bo'lishi lozim.

Agar ishda bir nechta javobgar ishtirok etuvchi bo'lsa, sud majlisiga ulardan biri yoki ayrimlari kelmagan taqdirda, kelmagan javobgarga nisbatan sirtidan hal qiluv qarori chiqarilishiga yo'l qo'yiladi.

Demak, bu qoidani mazmuniga ko'ra sudya qanday sabablarga asosan javobgar sud majlisiga kelmaganlik sabablarini aniqlashi lozim, chunki bu masalalarni aniqlash sirtidan ish ko'rib, hal qiluv qarorini chiqarish uchun bog'liq bo'ladigan holatlardan biri hisoblanadi.

Agar sudga kelmaslik sabablari uzrli bo'lsa va sud bu haqda xabardor bo'lgan taqdirda, taraflar ularning ishtirokisiz ish ko'rishni iltimos qilmagan va sud majlisiga ikkinchi chaqiriq bo'yicha kelmagan bo'lsalar, sirtidan hal qiluv qarorini chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Sirtidan hal qiluv qarorini chiqarish uchun da'vogarning o'zi sirtidan hal qiluv qarorini chiqarishga rozi bo'lmog'i talab qilinadi. Bunday holatga agar taraflar o'z talablarini qonuniy va asosli degan fikrda bo'lishi va bu yetarli darajada dalillar bilan asoslanganligi hamda arz qilgan talablari bo'yicha uzil-kesil hal etilgan qarorni qo'lga kiritishni nazarda tutadi.

Bulardan tashqari, agar ishda bir nechta javobgar ishtirok etgan bo'lsa-yu ulardan biri yoki ikkisi va hokozolar yuqoridagi talablarga rioya qilmagan holda sud majlisiga kelmasa, bunday hollarda sud kelmagan javobgarlarga nisbatan sirtidan hal qiluv qarorini chiqarishi mumkin.

Agar sud majlisiga kelgan da'vogar ishni javobgar ishtirokisiz sirtidan ish yuritish tartibida ko'rishga rozi bo'lmasa, sud ishni ko'rishni keyinga qoldiradi va kelmagan javobgarga sudda takror ko'riladigan vaqt va joy haqida qayta xabar yuboradi.

Sirtidan ish yuritish tartibi fuqarolik sud ishlarini ko'rib hal etishga oid protsessual qonunlarda ko'rsatilgan talablarga nisbatan birmuncha soddalashtirilgan (osonlashtirilgan) qoidalar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun Fuqarolik protsessual kodeksidagi qator qoidalar sirtidan hal qiluv qarorini chiqarishda tatbiq etilmaydi.

Sirtidan ish yuritish tartibi FPK berilgan. Bu qonunda ish sirtidan ish yuritish tartibida ko'rilganida sud ishda mavjud dalillarni tekshirish bilan kifoyalanadi,

tafaflarning vaj va iltimoslarini hisobga olib, hal qiluv qaror chiqaradi, bu hal qiluv qarori sirtidan chiqarilgan deb aytiladi.

Ish sirtidan ish yuritish tartibida ko‘rilganida da‘voning asosi yoki predmeti o‘zgartirilishi yoki da‘vo talablarining miqdori ko‘paytirilishi mumkin emas.

Demak, ishning bunday tartibda ko‘rilishida ham sud dalillarni tekshirish, taraflarning talab va e‘tirozlarini ham e‘tiborga olishi lozim. Ushbu qoidaning ikkinchi qismida ko‘rsatilganidek, da‘vogarning huquqlari ma‘lum darajada chegaralab qo‘yilganligini ko‘ramiz. Bunga ko‘ra, u da‘vo talablarining asosini, predmetini o‘zgartirish, da‘vo talablari miqdorini ko‘paytirish yoki kamaytirishga haqli emas. Agar bunday huquq da‘vogarga berilganda edi, javobgar bundan bexabar bo‘lishi, uning huquqlari paymol bo‘lishiga olib kelgan bo‘lar edi.

Sirtidan ish ko‘rish bilan chiqariladigan hal qiluv qarori umumiy qoidalarga rioya qilgan holda chiqariladi. Bu to‘g‘rida FPKning 285-moddasida berilgan. Bu qonunda hal qiluv qarorining xulosa qismida chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish mumkinligini, ariza berish muddati va tartibi ko‘rsatilgan.

Agar fuqarolik ishlarini umumiy asoslarda ko‘rilganda hal qiluv qarorini qaror qilish qismidan norozi tarafga yuqori sudga shikoyat berish (prokurorga protest keltirish) huquqi ko‘rsatilsa, sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarori esa shikoyat berish, protest keltirish yuqori sudga emas, shu ish ko‘rgan tuman (shahar) sudida qayta ko‘rib chiqish uchun beriladi.

Sirtidan chiqariladigan hal qiluv qarori FPKda ko‘rsatilgan qoidalarga asoslangan bo‘ladi.

Javobgarning manfaatlarni himoya qilish maqsadida ko‘rilgan ish bo‘yicha chiqarilgan qarorning nusxasini besh kun muddat ichida yuborish lozimligi qonunda belgilangan. Bu muddatlarni hisoblash ish bo‘yicha hal qiluv qarori chiqarilgan kundan boshlanadi.

Yuqorida keltirilgan qoidalarni rivojlantira borib, FPKning 285 1-moddasi ishda ishtirok etmagan da‘vogar va javobgarlarga g‘ayriqonuniy, asoslantirilmagan va adolatli chiqarilmagan hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat qilish, prokurorga protest keltirish huquqini beradi.

Norozi taraf o‘z noroziligini o‘n besh kun ichida hal qiluv qarori chiqarilgandan keyin berish tartibi ko‘rsatilgan.

Demak, sirtidan ko‘rilgan ish yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga nisbatan shikoyat qilish muddati birmuncha qisqa ekanini ko‘ramiz. Bu tartib sirtidan ish ko‘rishning o‘ziga xos xususiyatlariga kiradi. Biroq qonun bu bilan kifoyalanmay, taraflarga shikoyat qilish huquqini kassatsiya tartibida ham amalga oshirish huquqini beradi. Bunday hollarda manfaatdor shaxs FPKning 37-bobida berilgan qoida asosida ish tutmogi lozim.

Sirtidan ko‘rilgan ish yuzasidan sudning chiqargan hal qiluv qaroridan norozi taraf uni qayta ko‘rish uchun qonunda ko‘rsatilgan tartibda ariza bilan tegishli sudga murojaat etganda FPKning 286-moddasida ko‘rsatilgan qoidalarga amal qilishlari lozim.

Bu moddada sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish haqidagi arizada quyidagilar bo‘lishi kerak:

- 1) sirtidan hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi;
- 2) ariza berayotgan tarafning nomi;
- 3) sud majlisiga uzrli sabablarga ko‘ra kelmaganlikdan dalolat beruvchi holatlar ro‘yxati va ularni tasdiqlovchi dalillar, shuningdek, sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorining mazmuniga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan dalillar ro‘yxati;
- 4) ariza beruvchi tarafning iltimosi;
- 5) arizaga ilova qilingan materiallarning ro‘yxati.

Sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish haqidagi ariza taraf yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish haqidagi ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan sudga taqdim etiladi. Ariza berganlik uchun davlat boji to‘lanmaydi.

Arizaning 1-bandida sudning nomini ko‘rsatilishidan maqsad sudning ishni ko‘rishga vakolatlimi yoki yo‘qmi ekanligini, 2-bandida taraflar haqidagi ma‘lumotlarni talab qilinishi esa, ariza bergan taraf bunday huquqdan foydalanishga haqlimi yoki yo‘qmi ekanligini aniqlash uchun kiritilgandir.

Yuqorida bunday huquq javobgarga ish ko‘rgan sudga murojaat qilish lozimligi ta‘kidlangan.

Bulardan tashqari FPKning 286-moddasi 3-bandida agar sud majlisiga uzrli sabablarga ko‘ra kelmaganliklarini asoslab berish uchun tegishli dalillar keltirish to‘g‘risidagi talablar sirtidan ish ko‘rishning xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Bunday talablar ishlarni umumiy qoidalar asosida ko‘rish uchun belgilanmagan.

Yana bir xususiyati, ariza berganlik uchun davlat boji to‘lamasligidir.

Qonunda belgilangan talablarga rioya qilmaslik arizani ko‘rmasdan qoldirish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Sud sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish to‘g‘risidagi arizani qabul qilgandan keyin qator protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Jumladan, arizani ko‘rish vaqti va joyi haqida taraflarni xabardor qiladi; ularga ilova qilingan tegishli materiallarning nusxalarini yuborish masalalarini hal etadi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, sirtidan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish haqidagi ariza shu ishni ko‘rgan tuman (shahar) sudi tomonidan hal etiladi. Arizalar qisqartirilgan muddatda, ya‘ni o‘n kun ichida sud majlisida ko‘riladi.

Bunday turdagi ishlarni umumiy muddatlarga nisbatan qisqartirilgan holda belgilanishi, sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rishni yana bir o'ziga xos xususiyatlari qatoriga kiradi.

Sud, sud majlisi (vaqti va joyi) haqida taraflarni xabardor qiladi, lekin ularning kelmasligi arizani ko'rish uchun to'sqinlik qilmasligi FPKning 288-moddasida belgilangan. Bu qoidani tatbiq qilishda sud FPKning ish ko'rishda qonunda ko'rsatilgan hollarga ko'ra talablarni ko'rmasdan qoldirish haqidagi masalalarni ham hal qilishi mumkin.

Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish yakuni bo'yicha sud ajrim chiqaradi. Sud o'ziga berilgan vakolat doirasida sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rishda:

1) arizani qanoatlantirmay qoldirishga;

2) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish va avvalgi tarkibdagi yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan ko'rishni tiklashga haqli bo'ladi (FPKning 233-moddasi). Manfaatdor taraf sudning arizani qanoatlantirmaslik haqida chiqarilgan ajrim ustidan xususiy shikoyat berish huquqiga egadir.

Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asoslar bo'lib, sud majlisiga uzrli sabablarga ko'ra kelmaganlik sabablaridan dalolat beruvchi holatlar va ularni tasdiqlovchi dalillarning yetarli bo'lmashligi hisoblanadi.

Bordi-yu, agar sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizani ko'rish vaqtida sud taraflarning sud majlisiga kelmaganligiga uzrli sabablar borligini va bu haqda sudni o'z vaqtida xabardor qilish imkoniyati bo'lmaganligini hamda taraf sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dalillarni taqdim qilayotganini aniqlasa, sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori bekor qilinib, ishni mazmunan ko'rish tiklanishi lozim.

Demak, sud uchun sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish sabablari bo'lib, bunga bemor bo'lishi, safarda bo'lishi, mehnat va boshqa ta'tillarda bo'lishi, xorijiy davlatlarga xizmat yoki boshqa ishlar bilan safarga ketishi, tabiiy ofat tufayli kela olmasligi va hokazolar kirishi mumkin.

Yuqorida qayd qilinganidek, javobgar o'zini himoya qilish va da'vo talablarini bekor qilish uchun jiddiy dalillarning mavjudligini arizada ko'rsatishi lozim. Bunday holatlarga, masalan, da'vo predmetini noto'g'ri belgilanishi, talab ishga tegishsiz tarafga qaratilganligi, uchinchi shaxslarga nisbatan regress talablarni hal etilmasligi bo'lishi mumkin.

Javobgar tomonidan sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish uchun sudga taqdim qilinadigan hujjatlari chiqarilgan hal qiluv qarorining mazmunini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi talab qilinadi.

Agar sud javobgarni keltirilgan dalillarini asosli, sud majlisiga kelmaganli sabablarini uzrli deb topgan hollarda sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori bekor qilinib,

ishni mazmunan ko‘rish haqida ajrim chiqaradi. Ajrimda ishni mazmunan ko‘rishning tiklanishi va uni FPKda nazarda tutilgan umumiy qoidalar asosida ko‘rib hal etilishi ko‘rsatilishi lozim.

Hulosa o‘rnida shun aytish mumkinki, sirtidan ish ko‘rish institutining kiritilishidan maqsad, fuqarolik protsessida tortishuvchilik tamoyilining qo‘shimcha ravishda kafolatlanishini mustahkamlash, taraflarning harakat (harakatsizligi) uchun javobgarlik darajasini oshirish, nizoli masalani hal etishni tezlashtirish, shuningdek, sudyalarning ixtiyorida bo‘lgan ishlarni mazmun mohiyatini yo‘qotmasdan belgilangan vaqtda ko‘rib hal etish bilan manfaatdor shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilishga qaratilgandir.

Bundan tashqari, sirtidan ish ko‘rish va hal qiluv qarorini chiqarish uchun oddiy va ixcham protsessual harakatlarni amalga oshirish imkoniyatidan foydalanish vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoraxmetov Sh.Sh. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. – Toshkent, Adolat, 2007.
2. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. – Toshkent, TDYUI, 2010.
3. Xabibullaev D.YU. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). –Toshkent, TDYU, 2018.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent, Adolat, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 1-2-son, 10-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.legislature.ru>
3. <http://www.juristlib.ru>
4. <http://www.ziyonet.uz>
5. <http://www.pravo.uz>